

## **Methods, Perspectives and Mechanisms of Increasing the Efficiency of Tourism in Jizakh Region**

**Isanov Abdumajit Parmanovich<sup>1</sup>**

**Soatov Anvar Mahkamovich<sup>2</sup>**

**Annotatsiya.** Maqolada mamlakatimizning Jizzax viloyatida uning tabiiy potentsiali orqali hududning turistik imkoniyatlari va sayyohlarni qiziqtiradigan va o‘ziga jalb etadigan jozibador brend namunalari ko‘rsatish yo‘nalishlari hamda uning institutsional asoslari bayon qilingan.

**Kalit sozlar:** turistik hududlar, rekreasiya, madaniy-tarixiy meros, viza, infratuzilma, ziyorat, turizm mahallasi va qishlog‘i, brend namunalari.



<sup>1</sup>Independent researcher, assistant of Jizzakh Polytechnic Institute

<sup>2</sup>An independent researcher and senior lecturer at Jizzakh Polytechnic Institute

**Kirish.** Mamlakatimizda turizm sohasini strategik tarmoqlardan biri sifa-tida rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Shuningdek, hududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish-ning eng muhim omillaridan biri sifatida ichki turizmni jadal rivojlantirish, sayyohlarni mamlakatimizning madaniy-tarixiy merosi hamda tabiiy boyliklari, sayyohlarni o'z jozibasi bilan o'ziga chorlovchi hududiy brendlar bilan tanishtirish, uning asosi sifatida viza rejimining liberallashtirilishi, chet el fuqarolarini ro'yxatga olish tartibining soddalashtirilishi, turizm tarmog'ini rivojlantirish uchun imtiyoz va preferensiyalar berilishi milliy turizm salohiyatini ichki va tashqi bozorlarda samarali targ'ib qilish imkonini beradi.

Ammo, o'tkazilgan dastlabki tahlillar turizm tarmog'ini tartibga soluvchi normativ-huquqiy asosning nomukammalligi, alohida turizm xizmatlarini ko'rsatish qoidalarining, shuningdek, rivojlangan dunyo aholining mamlakatimiz tabiatining o'ziga xosligi, ko'plab hududlarda bahavo turistik ob'yektlar mavjudligi to'g'risida, qolaversa, o'z jozibasi bilan o'ziga chorlovchi hududiy brendlar to'g'risidama'lumotlar mavjud emasligini ko'rsatmoqda.

Shuning uchun ham turizm resursining asosi sanalgan dunyo xilma-xilligini namoyish qiluvchi turizm predmetlari faqatgina reklama, targ'ibot orqaligina xalqaro turizm ixlosmandlarini o'z domiga tortishi mumkin. O'z navbatida ta'kidlash joizki, turizm sohasining kirib kelishi va uning rivojlanishi dunyoning har qanday mamlakatiga ham nasib qilavermaydi, chunki mazkur sohaga bo'lgan turizm mahsulotlari bozoridagi unga bo'lgan talab to'g'ridan-to'g'ri iqtisodiy ehtiyojlar bilan emas, balki ijtimoiy ehtiyojlar bilan belgilanadi. Ijtimoiy ehtiyojlar ichida ziyoratga, rekreatsiyaga bo'lgan ehtiyoj inson ruhiya-tida uy-joyga bo'lgan ehtiyojdan ham ko'ra 3 marta ko'proqdir. Mamlaka-timizda mazkur sohani rivojlantirishning dolzarbligi ham shundadir. Turizm sohasining serdaromad, shuning bilan birgalikda mashaqqati kamroq faoliyat turi ekanligini e'tirof etib, mamlakatimizda mazkur sohani rivojlantirish, tako-millashtirish yuzasidan tinimsiz izlanishlarni olib borish maqsadga muvofiq sanaladi.

Ana shunday yo'llardan biri - aholi gavjum, shuningdek, iqlim sharoiti mo'tadil bo'lgan hududlarda aholining turistik xizmat ko'rsatishini amalga oshirishi bilan birga aholining o'zi ham mazkur turistik mahsulotdan bahramand bo'ladigan faoliyat turlaridan biri bu turistik mehmon uylarini yaratish va shu orqali ekoturizmni, agroturizmni mahalliy brendlar sanalgan sayyohlarning kundalik ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi mahalliy sut, go'sht mahsulotlari, shuningdek, mazali milliy taomlari hisoblanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.** Ma'lumki, turizm sohasi dunyoda hech narsa bilan alishib bo'lmaydigan sohalardan biridir. Shuning uchun ham mazkur sohani rivojlantirishga bizning mamlakatimizda ham birmuncha sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda, xususan 2019 yil 16 aprelda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining turizm to'g'risida" gi Qonuni, 2019 yil 13 avgustdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-5781 son Farmoni, 2019 yil 5 yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PF-5611 son Farmonlari qabul qilingan bo'lib, ularga ko'ra turizm turlari, shakllari va ularning institutsional asoslari berilgan bo'lsa, ba'zi manbalarda turistik qishloq ovullarini yaratish yo'nalishlari va uning institutsional asoslari, shuningdek, hududlar kesimida turistik qishloq zonalarini yaratish yuzasidan [Aynaqulov M.A., Xudayberdiyev B.B, 2020] taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Turistik mehmon uylarini tashkil qilishning institutsional asosi bo'lib, birinchi navbatda, 2019 yil 16 aprelda qabul qilingan "O'zbekiston Respublika-sining turizm to'g'risida" gi Qonuni, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 13 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5781 son Farmoni xizmat qiladi. Mazkur institutsional asoslarga ko'ra, 2019 yil 1 noyabrdan boshlab eng yuqori turizm salohiyatiga ega bo'lgan fuqarolar yig'inlari (shahar-cha, qishloq, ovullar hamda shahar, shaharcha, qishloq va ovullarning mahalla-lari) ro'yxatini shakllantirish, ushbu fuqarolar yig'inlari hududlarida 20 tadan kam bo'lmagan oilaviy mehmon uylari tashkil etilganda va turistlar uchun kami-da besh xil xizmat turlari (yashash va/yoki ovqatlanish bo'yicha xizmatlardan tashqari) ko'rsatilgan taqdirda ularga «Turizm mahallasi», «Turizm qishlog'i» yoki «Turizm ovuli» maqomini berish, 2020 yildan boshlab «Turizm mahal-lasi», «Turizm qishlog'i» yoki «Turizm ovuli» maqomi berilgan fuqarolar yig'inlari «Obod qishloq» va «Obod mahalla» davlat dasturlariga birinchi nav-batda kiritilishi qat'iy belgilab qo'yilgan [2019 yil 13 avgustdagi PF-5781-son Farmoni].

"O'zbekiston Respublikasining turizm to'g'risida"gi Qonunining 5-mod-dasiga ko'ra xalqaro va ichki turizm uning shakllari hisoblanadi. Turizm tashkil etilayotgan turning o'ziga xosligi, mavzusi, davomiyligi, harakatlanish usullari va turining boshqa xususiyatlaridan kelib chiqqan holda madaniy-tarixiy, ziyorat, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik, ishbilarmonlik, ijtimoiy, sport, tibbiy, yoshlar turizmi, agroturizm hamda turizmning boshqa turlariga bo'linishi mumkin ["O'zbekiston Respublikasining turizm to'g'risida"gi Qonuni. 2019 yil 16 aprelda qabul qilingan].

**Tadqiqot metodlari.** Tadqiqotda natijalar olish nuqtai nazaridan kuzatuv va tahlil usuli bo'yicha ishlar olib borilganda O'zbekiston, shuningdek, Jizzax viloyati turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamlı imkoniyatga, shuningdek, juda katta rekreatsiya salohiyatiga ega ekanligi, unda jami 7,4 ming madaniy meros ob'yektlari mavjud, ulardan 209 tasi to'rtta muzey shaharlar — «Xiva shahridagi Ichanqal'a», «Buxoro shahrining tarixiy markazi», «Shahri-sabz shahrining tarixiy markazi», «Samarqand shahri» hududida joylashgan bo'lib, YUNESKO butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilganligi ma'lum bo'ldi [2019 yil 5 yanvardagi PF-5611 son Farmon].

Mamlakatimizda so'nggi yillar davomida turizm xizmatlari eksporti hajmi ikki baravar oshdi, xususan so'nggi ikki yilda 546,9 million AQSh dollaridan 1041 million AQSH dollariga, ya'ni 190,3 foizga oshdi. COVID-19 dan oldingi yilda xorijiy tashrif buyuruvchilar sonining o'sish sur'ati o'rtacha yillik 8 foizni tashkil etgan bo'lsa, undan oldingi yilda 7 foizni tashkil qilib, bu ko'rsatkich 2,69 million nafardan oshganligini ko'rsatib turibdi. O'tgan yil yakunlari bo'yicha respublikaga 5,3 million xorijiy turistlar tashrif buyurdi. Xususi sektorini qo'llab-quvvatlash va muhofaza qilishga qaratilgan choralar ko'rilgani natijasida yil yakuni bo'yicha 950 taga, mehmonxona xo'jaliklari soni – 661 tadan 900 taga yetdi. Respublika hududiga olib kirilayotgan 8 va undan ko'proq yo'lovchi tashishga mo'ljallangan turistik klassdagi avtotransport vositalarini sertifikatlash qilishning yangi mexanizmi joriy etilgani hamda buning natijasida so'nggi yilda turistik klass avtotransport vositalarining parki 128 donaga ko'paytirilgani (47 avtobus va 81 mikroavtobus) mazkur sohaga berilayotgan e'tiborning yaqqol dalilidir. Eng asosiysi qishloq joylarda mehmon uylarini yaratishga ko'makla-shuvchi xorijiy fuqarolarni respublika hududida vaqtinchalik ro'yxatga olish tartibi soddalashtirilgani, mazkur tartib «E-MENMON» tizimi orqali to'liq elektron shaklga o'tkazilganligi, shuningdek, mehmon uylarini sertifikatlash qilish tartibi bekor qilinganligi bu borada ayni muddaodir. Bugungi kunda

mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha bir qancha istiqbolli dasturlar belgilab olingan bo'lib uning samarasi sifatida 2021 yilda turizmni rivojlantirish uchun mustahkam qonunchilik bazani yaratishga qaratilgan institutsional islohotlar, infratuzilmani modernizatsiyalash va mamlakat brendini targ'ib qilish hamda 2021- 2025 yillarda mamlakat iqtisodiyotida turizm indust-riyasi ulushini ko'paytirish, ushbu yo'nalishda zarur infratuzilmani rivojlantirish va dunyo bozorida respublikaning turizm salohiyatini targ'ib qilish orqali mamlakatning yalpi ichki mahsulotida turizm ulushini 5 foizgacha (shu paytgacha 2,3%) yetkazish, shuningdek, 2025 yil yakuniga qadar 9 milliondan ortiq turist-larni, shu jumladan uzoq xorijdan 2 million turistni jalb qilish belgilab quyilgan [2019 yil 13 avgustdagi PF-5781 son Farmoni].

**Tahlil va natijalar.** Mamlakatimizda yaratilayotgan shunday institutsional imkoniyatlardan kelib chiqqan holda xulosa qiladigan bo'lsak Jizzax viloyatida ham turizmni rivojlantirish uchun keng qamrovli imkoniyatlar mavjud.

Jizzax viloyati O'zbekistonning markaziy mintaqasida joylashgan bo'lib, shu tufayli har taraflama keng ko'lamli xo'jalik yuritish imkoniyatiga egadir. Uzunligi sharqdan g'arbga, ya'ni Yangiobod tumanidan Forish tumanigacha 180 km, janubdan shimolga, ya'ni Baxmal tumanidan Mirzacho'l tumanigacha 175 km. ni tashkil etadi. Maydoni 21,1 ming kv.km. Shundan 4,8 ming kv.km. (22,7 %) qishloq xo'jaligida foydalanishda bo'lgan yerlardir. O'rmon va o'rmonchilik bilan bog'liq ekinlar ekiladigan maydon 1,8 ming (8,5 %) kv.km dan iboratdir. Maydonning katta qismini sharqdan g'arbga va qisman shimoli-g'arb tomonga cho'zilgan Chimqortog' va Molguzar, g'arbdan sharqqa, sharqi-janubga va janubga tomon cho'zilgan Nurota tizma tog'lari, shimol tomondan Qozog'iston-dagi Chordora to'g'onidan viloyatning shimoli-g'arbidan Navoiy viloyati hududiga qadar cho'zilgan Aydarko'l tashkil etadi. Bu qadimiy yurtda ajdodlarimiz zakovati, salohiyatidan darak beruvchi – qadimiy turkiylarning quyosh yili tim-soli – “Quyosh taqvimi”, (“Saklar taqvimi”), 19 fevraldan 21 martgacha quyosh nuri tushadigan Huttosh, shuningdek, Qantartosh, Hamaltoshlarning o'zi sirlil bir olam. Viloyatda ziyorat turizmini rivojlantirish uchun ham Sa'd ibn Vaqqos, Usmand ota, Novqa ota, Xo'jamushkent ota, Parpi ota, Sayfin ota, Savruk ota, Qulfisar ota kabi ziyoratgohlarlar xizmat qiladi. E'tiborli jihati bu yerdagi tabiiy buloqlardan yiliga o'rtacha 16-20 mln. kubometr suv olish imkoniyati mavjud. Eng asosiysi viloyatning Baxmal, Zomin, G'allaorol tumanlari hamda Sh.Rashi-dov va Forish tumanlarining tog'li hududlarida yog'ingarchilik nisbatan mo'l bo'ladi. Shuningdek, haroratning mo'tadilligi tufayli Baxmal, G'allaorol va Fo-rish botiqlarida, Zominsoy, Yettikechuv va Ko'rpasoyda suvning parchalanishi nisbatan kam. Viloyatda turizm va uning zaminidagi rekreatsiya klasterlarini rivojlantirish uchun ham birmuncha sezilarli imkoniyatlar, ya'ni viloyat tabiatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri tog'lar va tog' yon bag'irlarida tarkibida temir, oltingugurt, vodorod, radiy, kremniy kislotasi, karbon gazi, ishqorli ter-mo-minerallar bo'lgan bir qator shifobaxsh suv manbalari mavjud.

Darhaqiqat, ayni paytda viloyatning G'allaorol, Forish, Mirzacho'l tumanlarida ana shunday balneologik suvlar bilan davolovchi “Marjonsuv”, “Birlash-gan”, “Gagarin” nomli sanatoriylar va bir nechta profilaktoriylar ishlab turibdi. Shuning bilan birgalikda viloyatning Zomin, Jizzax, Baxmal tumanlarida ham ma'danga boy manbalari bor. Viloyatdagi barcha ma'danli suvlar kimyoviy va balneologik tarkibiga ko'ra eng tabiiy o'ziga xosligi bevosita hududning ancha qismini egallagan tog'liq zona ekanligi bilan bog'liqdir. Mazkur hududlarning tog' yon bag'irlarida bir-biridan go'zal tabiat go'shalari, archazorlar bodomzor-lar yong'oqzorlar, shifobaxsh o'tloqlar, soyliklar, zilol suvlar, hatto, musaffo toza havo qatlamining o'zi bir olam. Ulkan daralarda qir-adirlar va soyliklarda kamyob o'simliklar va hayvonlar, parrandalarning

turfa xillari mavjud. Baxmal va Zomin tumanlaridagi qir-adirlar, ulkan bog‘-rog‘lar, shuningdek, Baxmaldagi dengiz sathidan 2600 metr balandlikdagi ma‘danli suv, Xalq bog‘i va qo‘riqxonalar, ajoyib sharsharalar, qirlar bag‘ridagi o‘nlab chashmalar insoniyatni o‘ziga chorlovchi saxiy tabiatning o‘ziga xos ne‘matidir.

Viloyatda turizm klasterlarining asosiy poydevori sanalgan Zomin tuma-nidagi 1976 yilda tashkil etilgan 48 ming gektarli Xalq bog‘ining tabiati o‘ta go‘zal. Balandligi dengiz sathidan 4 ming metrgacha cho‘zilgan tog‘ yon bag‘ri-da yoz va bahorda havo qatlami kamalak rangida tovlanadi. Qalin archazorlar va bahaybat daralar, soyliklardagi toshqin suvlar go‘yo tabiatning haqiqiy tabiiy ko‘rgazmasini namoyish etadi. Albatta bu kabi jarayonlarning xususiyati shundaki, inson hamisha ko‘pincha o‘zlashtirilmagan, inson qo‘li tegmagan tabiiy go‘shalarga ehtiyoj sezishidadir. Xalq bog‘i yonida Zomin qo‘riqxonasi tashkil etilgan, Xalq bog‘i va qo‘riqxonaning umumiy maydoni 78 ming gektarni tashkil etadi. Bu qo‘riqxonada 100 dan ortiq shifobaxsh va dorivor o‘simliklar, oq tirnoqli ayiq, yovvoyi cho‘chqa, bo‘rsiq, alqar, (tog‘ echkisi), jayra kabi hayvonlar, kemiruvchilar, kalxat, qora turna, bulduruq, tuvaloq, kaklik, tustovuq kabi parrandalarning 150 dan ortiq turlari uchraydi. Ushbu tabiat maskanida “Zomin” sanatoriysi, O‘rikli soy dam olish maskani, sayyohlar uchun ko‘plab mehmon-xona uylari faoliyat ko‘rsatib turibdi. Shu sabab mazkur rekreatsion hududlarda yil mobaynida dam oluvchilarning, sayyohlarning, ya‘ni rekrentlar oqimi uzil-maydi.

Viloyat rel‘efi shimol, shimoli-g‘arb tomondagi pasttekisliklar, cho‘l va dashtlardan qirlar, tog‘lar sari balandlab borishi bilan bog‘liq ravishda hayvonlar turlari ham ko‘payib boradi. Viloyatda baliqchilik sanoatini rivojlantirish uchun ham keng ko‘lamli imkoniyatlar mavjud, xususan, Aydarko‘l-Tuzkon Arnasoy ko‘llarida baliqlarning zog‘ora, laqqa, suzak va ilonbaliq kabi turlari bor. Bu-ning ajablanarli tomoni shundaki, Aydarko‘l-tuzkon Arnasoy ko‘llari viloyatda baliqchilik sanoatini rivojlantirish bilan bir paytda rekreatsiyani rivojlantirishga ham xizmat qiladi [Aynaqulov M.A., Xudayberdiyev B.B., 2020].

Viloyatning tabiiy iqlim sharoiti keskin mo‘tadil. Yozi quruq va issiq, qishi nisbatan yumshoq. Baxmal, qisman Zomin, Forish tumanlarining tog‘liq hududlarida yoz fasli biroz salqin o‘tadi. Yilning eng issiq oyi cho‘l zonalarida iyun-iyul, tog‘ zonasida iyul-avgust. Kunning uzunligi kunduz yozda 15 soat, qishda 9 soat davom etadi. Yanvar oyida harorat +1+4 daraja, iyul oyida esa +26+28 daraja. Bir yillik yog‘in miqdori 400-500 mm. Vegetatsiya davri 240-260 kun. Havoning namlik darajasi qishda 70-80 %. Bir yilda quyoshli kunlar 2800-3000 soat atrofida. Birinchi qorning yog‘ishi asosan oktyabr oyiga to‘g‘ri keladi.

Viloyat hududining nisbatan yaxlitligi va subtropik kengliklarga yaqinligi harorat rejimining bir xilligini ta‘minlaydi. Yil davomida o‘rtacha 250-270 kun havo ochiq, osmon beg‘ubor bo‘ladi. Fevraldan noyabrgacha quyosh energiyasi nisbatan ko‘proq bo‘ladi. Havoning harorat yig‘indisi janubiy pasttekisliklarda 5,5 ming daraja, shimoliy pasttekisliklarda 4,3-4,5 ming darajaga yetadi.

Viloyat hududida yog‘ingarchilik asosan qish va bahor fasllariga to‘g‘ri keladi. Shimoldan janubga tomon yog‘ingarchilik ko‘payib boradi. Yillik yog‘in miqdori balandligi 276 metr bo‘lgan Mirzacho‘lda 295, balandligi 392 metr bo‘lgan Sangzorda 400 mm.dan oshadi. Qor turib qoladigan kunlar bir yilda tekisliklarda 20-22 kun, tog‘li hududlarda 60-70 kuni tashkil etadi. Hududning tekislik qismida yillik yog‘in miqdori 200 mm. atrofida. Bug‘lanish darajasi 100-120 mm.ga teng. Viloyat hududida shimoli-g‘arbda vaqti-vaqti bilan kuchli shamol bo‘lib turadi. Aprel va may oylarida kuchli shamol, do‘l va jala yog‘ish holatlari uchraydi.

Viloyat aholisi 2021 yil yanvar oyi holatiga 1403100 kishini tashkil etib, yil boshidan 29700 kishiga yoki 102,2 foizga ko'paydi. Shundan 647900 kishi –shahar joylarida (46,2%) va 755200 kishi qishloq joylarida (53,8 foiz) istiqomat qiladi.

Tarkibiga ko'ra 70 dan ortiq millat vakillari bor. Umumiy aholisining 83 foizini o'zbeklar tashkil qiladi. O'rtacha zichligi bir kv.km. ga 65,5 kishi [Rasmiy web sayt: [www.jizzaxstat.uz](http://www.jizzaxstat.uz)].

Yuqorida qayd etilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, aholisi 163,6 ming kishi bo'lgan viloyatning Zomin tumanida (viloyat aholisining 11,8 %), aholisi 155,8 ming kishi bo'lgan Baxmal tumanida (viloyat aholisining 11,3 %), aholisi 171,4 ming kishi bo'lgan G'allaorol tumanlarida (viloyat aholisining 12,4 %) negizida rekreastiya mavjud bo'lgan turistik mehmon uylarini, shuning-dek, ularning o'zaro kooperastiyasi asosidagi turizm klasterlarini tashkil qilish uchun keng qamrovli imkoniyatlar mavjud.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. “O‘zbekiston Respublikasining turizm to‘g‘risida” gi Qonuni. 2019 yil 16 aprelda qabul qilingan.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 13 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-5781 son Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 yanvardagi “O‘zbekiston respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PF-5611 son Farmoni.
4. Rasmiy web sayt: [www.jizzaxstat.uz](http://www.jizzaxstat.uz)
5. Elektron pochta manzili: [jizzaxstat@uznet.net](mailto:jizzaxstat@uznet.net)
6. Elektron ximoyalangan pochta manzili: [jiz.stat@exat.uz](mailto:jiz.stat@exat.uz)
7. Aynaqulov M.A. Xudayberdiyev B.B. Jizzax viloyatida turistik qishloq ovullarini yaratish yo‘nalishlari va uning institutsional asoslari // Институциональное развитие взаимоотношений финансово-кредитной системы с реальном сектором экономики. Материалы XII международной научно-практической конференции 10-11 июня 2020 года. Самарканд -2020-185 с.